



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIVLIK QOBILIYAT
ASOSIDA IQTISODIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH**

AMIRQULOV AZAMJON

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: a.amirqulov@dpi.uz

Tel: +99897 846 00 97

UZMU f.f.d. dots. **Z.Axrarova** taqrizi asosida

Kalit so‘zlar:
boshlang‘ich sinf
o‘quvchisi, kreativ
yondashuv,
iqtisodiy tarbiya,
iqtisodiy ta‘lim,
iqtisodiy bilim,
iqtisodiy
madaniyat.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimlarini shakllantirish zaruriyati, mazkur jarayonga xos pedagogik asoslari va ta‘sir etuvchi omillar mazmuniga doir ma‘lumot keltirilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari tahlili hamda o‘quvchilarda ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirish bosqichlari mazmuni yoritilgan. Ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nazariy va pedagogik amaliyotda “iqtisodiy ta‘lim”, “iqtisodiy tarbiya”, “iqtisodiy madaniyat”, “iqtisodiyotda ta‘lim” tushunchalari qo‘llaniladi. Bu tushunchalar bir – birlarini to‘ldirib boradi, bu esa o‘quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ
ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА У
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Ключевые слова: учащийся начальных классов,
Аннотация: В данной статье представлена информация о необходимости формирования экономических знаний учащихся младших классов на основе творческого подхода, содержания





творческий
подход,
экономическое
образование,
экономическое
образование,
экономические
знания,
экономическая
культура.

педагогических основ и факторах влияния, специфичных для этого процесса. Также освещено содержание анализа научно-исследовательских работ и этапы формирования первых экономических знаний у студентов. Теоретические анализы, проведенные многими исследователями, показывают, что понятия «экономическое образование», «экономическое образование», «экономическая культура», «экономическое образование» используются в теоретической и педагогической практике. Эти понятия дополняют друг друга, что служит основой формирования экономических знаний у студентов.

PEDAGOGICAL BASIS OF FORMING ECONOMIC KNOWLEDGE IN PRIMARY STUDENTS BASED ON A CREATIVE APPROACH

ABSTRACT

Keywords: primary school student, creative approach, economic education, economic education, economic knowledge, economic culture.

Annotation. This article presents information on the need to form economic knowledge of primary school students based on a creative approach, the pedagogical foundations of this process and the content of influencing factors. It also covers the analysis of scientific research works and the content of the stages of forming initial economic knowledge in students. Theoretical analyses conducted by many researchers show that the concepts of “economic education”, “economic upbringing”, “economic culture”, “education in economics” are used in theoretical and pedagogical practice. These concepts complement each other, which serves as the basis for the formation of economic knowledge in students.





Kirish (Introduction)

O‘zbekiston Respublikasining yangi taraqqiyot bosqichida zamonaviy kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimlar uchinchi ming yillikni rivojlantirishning maqsadli mazmuni va global aspektlarini aksettiruvchi vazifalar bilan o‘zaro hamohangdir. Iqtisod fani va ta’limga tegishli zaruriy talablar zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti oldiga bir qator o‘ta muhim vazifalarni qo‘yadi va ularga to‘g‘ri yechim topishi yosh avlodni to‘laqonli va sog‘lom turmush tarziga tubdan bog‘liq bo‘libgina qolmay, balki iqtisodiy bilimlarni olish va qo‘llash jarayonidagi ishga qodirligiga aloqador. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida **“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart” [1.72].** Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”ligi ta’kidlandi. Iqtisodiyot jamiyat hayotining eng murakkab tizimlaridan biri sifatida oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ishlab chiqarish qurollari hamda vositalari kabi cheksiz narsalarga umumiy ehtiyojlar va ularni qondirishning usullari mavjudligini gavdalantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimi albatta iqtisodiy ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Iqtisodiy ta’lim esa integral tavsifga ega bo‘lib, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bog‘liqlikda rivojlanib boradi. Ilmiy izlanishlar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida bolalarga iqtisodiy ta’lim berish dinamikasi oddiydan murakkabga tomon, izchil, davomiy bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi. Ta’lim tizimining biror bo‘g‘inida ta’lim sifatining susayishi yoki uzviylikning yo‘qolishi kelgusi bosqichlarda o‘zining noxush sifat o‘zgarishlarini albatta namoyon qiladi. Iqtisodiy ta’lim murakkab integral ta’lim jarayoni hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy iqtisodiy madaniyatning mohiyatini bilish, shu jumladan uni bashorat qilish, shakllantirish, saqlash va mustahkamlash usullarini hisobga olgan holda, insonning ijtimoiy ahamiyatga ega hayotiy qadriyatlarini baholash tizimi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Shaxs tomonidan iqtisodiy bilimlar o‘zlashtirilishining falsafiy jihatlari B.Valiyev, L.Jo‘rayev, B.Tolipovlar, psixologik jihatdan esa I.Andreyeva o‘rganishib ilmiy izlanishlarida tadqiq etishgan. Ta’lim – tarbiya jarayonida o‘quvchi-yoshlarning





iqtisodiy bilimni rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda [2. 236].

Ma'lumki, o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan Angliya, Germaniya, Yaponiya, AQSh kabi taraqqiy etgan davlatlarning ta'lim muassasalari o'quv rejalariga, bolalarni kundalik hayotga tayyorlash maqsadida pul ishlab topish, uni saqlash, mol-mulk yig'ish, daromadli biznes, tejamkorlik, vaqtni foydali sarflash, irodani mustahkamlash, salomatlikka e'tibor berish, foydali kasbni tanlash va iqtisodiy bilim berish maqsadiga yo'natirilgan "iqtisodiy pedagogika" fani kiritilgan. Ushbu fan uchun alohida o'quv dasturi va uslubiy tavsiyalar yaratilgani ma'lum.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy tarbiya berish borasida Germaniya tajribasi tengsizdir. Bu yurtning keng jamoatchiligi, oila va ijtimoiy institutlarining maqsadi boshlang'ich sinfdanoq aholida iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir. Matbuot va ommaviy axborot vositalari ham bu borada chetda turmaydilar, ular televideniya namoyish etayotgan reklamalar taklif qilayotgan narsalarning barchasiga birdan ega bo'lish mumkin emasligi, istaklarni jilovlay bilish va taklif etilganlar ichidan eng zarur va foydalisini tanlab olish malakasini hosil qilishda ota-onalarni bolalarga yordam berishga chaqiradilar. Germaniyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlik chog'idan pul toppish va uni sarflash malakasiga ega bo'lishi, xuddi ko'chada yo'lni kesib o'tish qoidalarini bilish kabi oddiy va muhim sanaladi.

Shu bois, bola son va sanoqni ilk bor o'zlashtira boshlagan zahoti ularga mayda sarf-harajatlar uchun haftalik pul ajratiladi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi bunday "iqtisodiy munosabatlar"[3. 155] to'rt asosiy qoidaga asoslanadi. Bugungi kunda pedagogika oliy o'quv yurti talabalari bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga tayyorlash muammolari ham o'z yechimini kutib turgan dolzarb masalalardandir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Boshlang'ich sinflar 1-4 sinf o'quvchilarida kreativ yondashuv asosida iqtisodiy-statistik bilimlar elementlarini shakllantirish" mavzusida ilmiy izlanish olib borib, boshlang'ich sinf "Matematika", "Texnologiya", "Tabiiy fanlar", qisman "Ona tili" fanlari mazmuniga iqtisodiy-statistik elementlarni kiritish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini o'rgangan. Tadqiqot jarayonida izlanuvchi Xol Jumayevich Xudoyqulov matematik misollarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy-statistik bilimlarni





shakllantirish mumkinligi, bu ularning o'qish faoliyati va o'zlashtirish darajasini yaxshilab, bilim olishiga ijobiy ta'sir etishi hamda hayotiy tayyorgarligining faollashuviga sabab bo'lishi mumkinligini isbotlagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Boshlang'ich 1-4-sinf o'quvchilari kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimdonligini modulli texnologiya asosida rivojlantirishning didaktik asoslarini tadqiq etgan X.A.Umarova, "O'qish", "Ona tili", "Matematika" fanlari mazmunida boshlang'ich sinf ta'lim oluvchilariga fanlar mazmunida iqtisodiy bilim berish uslublarini tavsiya etgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat ta'limi jarayonida tejamkorlik hislarini singdirish muammosini hal qilish maqsadiga qaratilgan yana bir tadqiqot ishi S.I.Musayeva tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, unda boshlang'ich (1-sinf) o'quvchilarini oilada va mehnat darslarida tabiiy materiallar – qog'oz, karton, gazlama bilan ishlashda tejamkorlikka o'rgatish imkoniyatlari tahlil etilgan. Mehnat darslari va darsdan tashqari jarayonlarda maktab, oila, mahalla hamkorligida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiyotga oid tushunchalarni shakllantirish samaradorligini ilmiy o'rganish maqsadiga qaratilgan yana bir tadqiqot ishi dissertant X.J.Xudoyqulov tomonidan amalga oshirilgan. Izlanuvchi "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari" [4.22] muammolari ustida ish olib borib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodkorlik hissini o'stirish va iqtisodiy ta'limtarbiya berishda Sharq mutafakkirlari adabiy merosidan foydalanish, bunda davlat iqtisodiy siyosatining o'rni va ahamiyatini yoritib bergan. Tahlillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarni shakllantirishga turtki bo'lgan tushunchalar, ularga engyaqin bo'lgan olam, ularni o'rab turgan atrof-muhit, narsa-hodisalar va bolalarning undagi faoliyati bilan bog'liq bo'lishi zarur degan xulosani beradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazariy va pedagogik amaliyotda "iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy tarbiya", "iqtisodiy madaniyat", "iqtisodiyotda ta'lim" tushunchalari qo'llaniladi. Bu tushunchalar bir – birlarini to'ldirib boradi, bu esa o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda ushbu tushunchalarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Iqtisodiy tarbiya-bu tarbiyaning bir qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi shaxsda iqtisodiy tarbiyani tavsiflovchi (iqtisodiy, ijtimoiy – iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy fikrlash) kabi fazilatlarini shakllantirish, zamonaviy iqtisodiy tarbiyaning eng muhim belgisi bo'lgan ma'naviy asosga ega bo'lgan iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishdir.





Iqtisodiy bilim-bu iqtisodiy ta'limning aniq – amaliy komponentlarini o'z ichiga oladi, shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchining iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishdagi bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati. Iqtisodiy bilim berishning asosiy komponentlari iqtisodiy ta'lim mazmuni (iqtisodiy kompetensiya), iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy bilim, ko'nikma va malaka, amaliy faoliyat tajribasi, kopotentlik.

Iqtisodiy ta'lim-bu ta'limning majburiy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchi shaxsini shakllantirish, bozor sharoitiga moslashtirish va o'z faoliyatini iqtisodiy jihatdan amalga oshira oladigan kadrlarni tayyorlashdir.

Iqtisodiy madaniyat -bu shaxsning jamiyatda iqtisodiy faoliyat va xulq - atvorida o'z – o'zini anglashiga, o'ziga moslashishiga prognozlashgan ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarga integratsiyalashuviga imkon beruvchi intellektual, hissiy va amaliy komponentlar, axloqiy va ma'naviy munosabatlar majmuidir [5.152]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlari va ta'sir etuvchi omillariga e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirgan o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. [6.148]. Ammo iqtisodiy jarayonlar haqida bilimga ega bo'lish, uni tushunish, ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish hali o'quvchi-yoshlarning iqtisodiy madaniyat to'liq shakllanganligini anglatmaydi. Iqtisodiy faoliyat ko'nikmalari qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo'lsagina o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarning o'zlashtirilganlik darajasini belgilaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik yondashuv asosida iqtisodiy bilimlarni shakllantirish bilan bog'liqlikda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

– **uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida iqtisodiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;**

– **ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali o'quvchilarda iqtisodiyfaoliyat ko'nikmalarini shakllantirish;**

– **iqtisodiy ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;**





– o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqish va ehtiyojlarini, iqtisodiy bilim darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va anketa so‘rovlarini o‘tkazib, natijalarini qayd etib borish;

– o‘quvchilarda iqtisodiy madaniyatni tarbiyalash orqali ularni kompetentli ijtimoiy faol yoshlar sifatida tayyorlashga erishish.

Iqtisodiy ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi pedagogika fanining yangi, to‘liq o‘rganilmagan sohasi sirasiga kirgani bois, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida u bilan bog‘liq hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud. Bunda asosiy e’tibor respublikada olib borilayotgan ta’lim islohotlarida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, demak-ki, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim oluvchilarning iqtisodiy tarbiyasini takomillashtirishga qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.[1] 2020 yil 24 yanvar. – Toshkent.: Tasvir nashriyot uyi, 2020.– 72 b.[1]
2. Андреева И.В. Экономическая психология. Социокультурный подход / И. В. Андреева. - СПб, 2020. –С. 236. [2].
3. Artiqova M.B. Oilada o‘smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2018. –B. 155. [3]
4. Атоев Н.М. Педагогические условия экономического воспитания старшеклассников (сельских школ Узбекистана): Автореф. дисс. канд. пед. наук. Алма-Атинск. ГУ. 2023. ст 22.[4]
- 5.Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma’naviy omillar uyg‘unligi: Falsafa.fan.nom. ... diss.–T.: 2019. –B.152.[5]
- 6.Kamolova N.Q. O‘quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarning rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2015. – B. 148. [6]
7. Sadikova, S. (2020). University students training system for pedagogical activities. InterConf.





8. Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma'naviy omillar uyg'unligi: Falsafa.fan.nom. ... diss.–T.: 2019. –B.152.

9. Azamjon, A. (2023). HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA O'RTA ASRLAR SHARQ MUTAFAKKIRLARI MA'NAVIY MEROSINING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(4), 157-161.

10. Valiyev B.N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari. Falsafa.fan.nom.... diss. – T.: 2014. –B.134.

